

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEKISTONNING URUSHDAN KEYINGI YILLARDA MARKAZLASHGAN REJA ASOSIDA IQTISODIY RIVOJLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGIDAGI TIZIMLI O'ZGARISHLAR

Rivojov Sherzod Shoyimovich

Buxoro davlat universiteti, tadqiqotchi.

e-mail: sherzodrivojov@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-0115-6871>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekistonning urushdan keyingi yillarda markazlashgan reja asosida iqtisodiy rivojlanish jarayoni yoritilgan. Matnda Buxoro viloyati misolida davlatga majburiy go'sht topshirish rejalarining taqsimlanishi, tumanlar kesimidagi farqlar va ishlab chiqarish yuklamalarining notekisligi statistik ma'lumotlar asosida ochib berilgan. Bundan tashqari, Umuman olganda, tadqiqot sovet davridagi markazlashgan iqtisodiy siyosatning hududiy rivojlanishga ta'siri, ishlab chiqarishning reja asosida boshqarilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, markazlashgan reja, buyruqbozlik tizimi, oziq-ovqat tanqisligi, chorvachilik, em-xashak bazasi, go'sht ishlab chiqarish, Buxoro viloyati, markaziy boshqaruv, ishlab chiqarish rejasi.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПОСЛЕВОЕННЫЕ ГОДЫ НА ОСНОВЕ ЦЕНТРАЛИЗОВАННОГО ПЛАНИРОВАНИЯ И СИСТЕМНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Ривожов Шерзод Шойимович

Бухарский государственный университет,исследователь.

Аннотация.

В данной статье освещается процесс экономического развития Узбекистана в послевоенные годы на основе централизованной плановой системы. В тексте на примере Бухарской области раскрываются распределение планов обязательной сдачи мяса государству, различия между районами и неравномерность производственных нагрузок на основе статистических данных. Кроме того, в целом исследование раскрывает влияние централизованной экономической политики советской эпохи на региональное развитие, плановое управление производством и его социально-экономические последствия.

Ключевые слова: Узбекистан, централизованное планирование, командно-административная система, дефицит продовольствия, животноводство, кормовая база, производство мяса, Бухарская область, центральное управление, производственный план.

UZBEKISTAN'S POST-WAR ECONOMIC DEVELOPMENT UNDER A CENTRALIZED PLANNING SYSTEM AND SYSTEMIC CHANGES IN AGRICULTURE

Rivojov Sherzod Shoyimovich

Bukhara State University,Researcher.

Abstract.

This article highlights the process of economic development of Uzbekistan in the post-war years based on a centralized planning system. In the text, using the example of the Bukhara region, the distribution of compulsory meat delivery plans to the state, differences between districts, and the unevenness of production workloads are revealed based on statistical data. In addition, in general, the study reveals the impact of the centralized economic policy of the Soviet era on regional development, the planned management of production, and its socio-economic consequences.

Keywords: Uzbekistan, centralized planning, command-administrative system, food shortage, livestock farming, fodder base, meat production, Bukhara region, central administration, production plan.

Kirish. Urushdan keyingi tiklanish jarayonida O'zbekiston zimmasiga sanoat va qishloq xo'jaligini qisqa muddat ichida urushdan oldingi darajaga yetkazish hamda ayrim tarmoqlarni yanada kengaytirish vazifasi yuklatildi. Ayniqsa,

paxtachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, bu tarmoq Ittifoq iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirildi. Natijada respublika iqtisodiyoti bir yoqlama rivojlanib, boshqa tarmoqlar, xususan, oziq-ovqat ishlab chiqarish va mahalliy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi sohalar yetarli darajada e'tibordan chetda qoldi [1].

Mazkur vazifalarni bajarishda o'zbek xalqining mehnatsevarligi, sabr-toqati va tinchliksevarligi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga qaramasdan, aholi yuqori darajadagi fidoyilik bilan mehnat qildi. Qishloq joylarda, ayniqsa, qo'l mehnati ustun bo'lib qolgan bo'lsa-da, mavjud resurslar imkon qadar safarbar etildi. Ko'plab ishlar murakkab sharoitlarda, yetarli texnika va mexanizatsiya vositalarisiz amalga oshirildi.

Sovet Ittifoqi davrida qishloq xo'jaligi to'liq markazlashgan reja asosida boshqarilgan bo'lib, bu tizim davlat tomonidan qat'iy nazorat qilingan. Har bir viloyat, tuman va hatto alohida xo'jalik darajasigacha ishlab chiqarish jarayonlari oldindan belgilangan rejalar asosida tashkil etilgan. Ushbu rejalarda qaysi ekin qancha ekilishi, qancha hosil olinishi, qachon ekish va yig'im-terim ishlari amalga oshirilishi aniq ko'rsatib berilgan [2]. Bunday tizimda qishloq xo'jaligi ishlarini tashkil etish yuqoridan pastga qarab buyruqbozlik asosida olib borilgan. Viloyat va tuman rahbarlari, kolxoz va sovxoz raislari zimmasiga ishlab chiqarish rejalarini bajarish bo'yicha qat'iy majburiyatlar yuklatilgan. Rejalar bajarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilib, natijalar bo'yicha hisobotlar talab qilingan.

Shuningdek, texnik vositalar — traktorlar, kombaynlar va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalari bilan ta'minlash ham markazlashgan holda amalga oshirilgan. Bu vazifa ko'pincha mashina-traktor stansiyalari (MTS) orqali bajarilgan bo'lib, ular xo'jaliklarni texnika va mutaxassislar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Hosil yig'im-terimini o'z vaqtida va yo'qotishlarsiz amalga oshirish ham rejaning muhim qismi sifatida qaralgan. Rasmiy-buyruqbozlik tizimida har bir vazifa uchun mas'ul shaxslar va tashkilotlar aniq belgilab qo'yilgan, ularning ismlari va lavozimlari hujjatlarda nomma-nom ko'rsatilgan.

Statistik ma'lumotlar bu holatni yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, g'alla yetishtirish hajmi 1940-yildagi **615,5 ming tonnadan 443 ming tonnaga** tushib ketdi. Sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish **315,2 ming tonnadan 164,3 ming tonnaga** kamaydi. Uzum yetishtirish **130,2 ming tonnadan 84,2 ming tonnaga**, poliz mahsulotlari esa **331,9 ming tonnadan 153,4 ming tonnaga** qisqardi. Bu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi tarmoqlarida chuqur tanazzul yuz berganini ko'rsatadi [3].

Yaylovlarning qisqarishi va ozuqa tanqisligi chorva mollari sonining kamayishiga, mavjud chorvaning esa mahsuldorligining pasayishiga olib keldi. Natijada chorvachilik mahsulotlari hajmi ham keskin kamaydi. Xususan, agar 1945-yilda yalpi go'sht yetishtirish **73,5 ming tonnani** tashkil etgan bo'lsa, 1950-yillar boshlariga kelib bu ko'rsatkich atigi **57 ming tonnaga** tushib qoldi [4]. Bu esa aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan.

1950-yillarga kelib shahardagi ko'plab sanoat korxonalari yetti yillik reja doirasida kengaytirildi va rekonstruksiya qilindi. Bu jarayon ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan edi. Jumladan, go'sht muzxonasi qurilishi qisqa muddat ichida yakunlanib, foydalanishga topshirildi. Mazkur korxona bir sutkada **10-12 tonna** go'sht, **3 tonna** kolbasa hamda **10 tonna** muzlatilgan go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan bo'lib, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi [5].

SSSR Vazirlar Sovetining 1950-yil 15-yanvardagi qaroriga asoslangan holda, 1950-yil 19-yanvarda Buxoro viloyati ijroiya qo'mitasi tomonidan qabul qilingan hujjatga muvofiq, 1950-yilning birinchi kvartalida davlatga majburiy go'sht topshirish rejasi ijrosini ta'minlash masalasi qo'yildi. Ushbu qaror markazlashgan boshqaruv tizimining hududiy darajadagi amaliy ko'rinishini aks ettiradi [6]. Unda har bir tuman bo'yicha majburiy reja hamda uning kolxozlar, yakka xo'jaliklar va yordamchi xo'jaliklar o'rtasida taqsimoti ko'rsatilgan. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin [7].

No	Tuman nomi	Jami	Kolxozlar	Yakka xo'jalik	Yordamchi xo'jalik
1	Olot	315	215	100	-
2	Buxoro	575	380	145	50
3	Vobkent	760	492	268	-
4	G'jduvon	1080	650	420	-
5	Kogon	475	207	128	40
6	Qorako'l	600	392	198	10
7	Konimex	640	537	103	-
8	Karman	675	484	181	10
9	Qiziltepa	450	284	166	-
10	Romitan	505	328	177	-
11	Sverdlov	472	327	145	-
12	Tomdi	813	698	115	-
13	Shofirkon	750	526	224	-
14	Jami	8110	5630	2370	110

Umumiy hisobda viloyat bo'yicha **8110 sentner** go'sht topshirish rejalashtirilgan. Ushbu ko'rsatkichning asosiy qismi — **5630 sentner** — kolxozlar zimmasiga yuklatilgan bo'lib, bu ularning qishloq xo'jaligidagi yetakchi rolini yaqqol ifodalaydi. Yakka xo'jaliklar zimmasiga **2370 sentner** topshiriq berilgan, bu esa ularning ham tizimda muhim o'rin

tutganini ko'rsatadi. Yordamchi xo'jaliklar hissasi esa nisbatan kichik bo'lib, atigi **110 sentn**erni tashkil etadi.

Tumanlar kesimida tahlil qilinganda, rejaning notekis taqsimlanganini ko'rish mumkin. Eng yuqori ko'rsatkich G'ijduvon tumaniga to'g'ri keladi — **1080 sentner**. Bu hududda kolxozlar **650 sentner**, yakka xo'jaliklar esa **430 sentner** go'sht topshirishi belgilangan. G'ijduvonning bunday yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishi uning qishloq xo'jaligi salohiyati, chorvachilik rivoji yoki aholi sonining ko'pligi bilan izohlanishi mumkin.

Keyingi yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida kuzatiladi — **813 sentner**. Bu yerda kolxozlar hissasi ayniqsa katta bo'lib, **698 sentn**erni tashkil etadi, yakka xo'jaliklar esa **115 sentner** bilan cheklanadi. Bu holat Tomdida kolxoz tizimi ustun bo'lganini anglatadi. Shuningdek, Vobkent (760) va Shofirkon (750) ham yuqori reja yuklatilgan hududlar sirasiga kiradi. Bu tumanlarda ham kolxozlar asosiy ishlab chiqaruvchi kuch hisoblangan.

O'rta darajadagi reja ko'rsatkichlari Karmana (675), Konimex (640), Qorako'l (600) va Buxoro (575) tumanlarida qayd etilgan. Bu hududlarda reja nisbatan muvozanatli taqsimlangan bo'lib, kolxozlar bilan bir qatorda yakka xo'jaliklar ham sezilarli ulushga ega. Ayrim tumanlarda, masalan, Buxoro, Kogon va Peshkuda yordamchi xo'jaliklar ham alohida ustun sifatida ko'rsatilgan bo'lib, ular kichik bo'lsa-da, umumiy reja bajarilishida ishtirok etgan.

Pastroq ko'rsatkichlar Qiziltepa (450), Romitan (505), Sverdlov (472) va Kogon (475) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng past reja esa Olot tumanida kuzatiladi — **315 sentner**. Bu hududlarda rejaning nisbatan kam belgilanishi ularning iqtisodiy imkoniyatlari, chorva soni yoki boshqa ishlab chiqarish omillari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Buxoro viloyati kesimida 1960–1969-yillarda go'sht ishlab chiqarish dinamikasi tahlili viloyatda chorvachilik sohasining nisbatan beqaror, ammo muayyan davrlarda sezilarli o'sish imkoniyatlariga ega bo'lganini ko'rsatadi. 1960-yilda ishlab chiqarish hajmi **20,3 ming tonnani** tashkil etgan bo'lsa, 1965-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli o'zgarmagan holda **20,2 ming tonna** darajasida saqlanib qoladi. Bu holat viloyatda dastlabki besh yillik davrda o'sish sur'atlarining past bo'lganini, ishlab chiqarish asosan mavjud darajada ushlab turilganini anglatadi.

1966-yilda esa keskin pasayish kuzatilib, ko'rsatkich **17,6 ming tonnagacha** tushib ketadi. Bunday pasayish, ehtimol, yem-xashak bazasidagi muammolar, qurg'oqchilik yoki rejalashtirish tizimidagi uzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Sovet davri iqtisodiyotida chorvachilik ishlab chiqarishi ko'p jihatdan tabiiy sharoit va markazlashgan ta'minot tizimiga bog'liq bo'lganligi sababli, bunday tebranishlar odatiy hol hisoblangan.

1967-yildan boshlab esa tiklanish bosqichi kuzatiladi. Ishlab chiqarish hajmi **20,9 ming tonnaga** yetib, avvalgi darajaga qaytadi. **1968-yil** Buxoro viloyati uchun eng muvaffaqiyatli yil bo'lib, go'sht ishlab chiqarish **24,2 ming tonnaga** chiqadi [7].

Biroq 1969-yilda yana pasayish kuzatilib, ko'rsatkich **20,6 ming tonnaga** tushadi. Shunga qaramay, bu natija 1960-yil darajasidan biroz yuqori bo'lib, umumiy davr kesimida viloyatda keskin inqiroz emas, balki tebranishli, siklik rivojlanish mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Buxoro viloyatida 1960-yillar davomida go'sht ishlab chiqarish barqaror o'sish trayektoriyasida emas, balki o'zgaruvchan dinamikada rivojlangan. Ayrim yillardagi keskin pasayishlar va keyingi tiklanishlar chorvachilik tarmog'ining tashqi omillarga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 1968-yildagi yuqori natija viloyatning ichki resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud bo'lganini tasdiqlaydi.

Xulosa. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti markazlashgan reja asosida tiklanish va rivojlanish jarayoniga jalb etildi. Bu davrda ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishlari Kommunistik partiya va ittifoq miqyosidagi rejalar orqali belgilab berilib, respublika iqtisodiyoti asosan Markaz manfaatlariga bo'ysundirilgan holda shakllandi. Buxoro viloyati misolida tahlil qilinganda, majburiy davlat rejalar tumanlar o'rtasida notekis taqsimlanganini, ishlab chiqarish yuklamalari esa iqtisodiy imkoniyatlarga har doim ham mos kelmaganini ko'rish mumkin. Shuningdek, 1960–1969-yillar davomida go'sht ishlab chiqarish dinamikasi o'zgaruvchan bo'lib, bu tarmoqning tashqi omillarga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Umuman olganda, mazkur davr O'zbekiston iqtisodiyotida miqdoriy o'sish bilan birga tizimli muammolar, Markazga qaramlik va hududiy nomutanosibliklar kuchaygan davr sifatida tarixda qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R. X. Murtazayeva, X. Yunusov, O'. Mavlonov. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2010. – B. 382.
2. Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR. Statisticheskii sbornik. – Moskva, 1960-yillar.
3. D. A. Alimova. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865–1990-yillar). – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 278.
4. D. A. Alimova. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865–1990-yillar). – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 279.
5. Ya. Ashurov, T. Gelax, U. Komolov, D. Nomozov. Buxoro haqida qisqacha spravochnik. – Toshkent: O'zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1959. – B. 81.
6. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 1-ro'yxat, 54-ish, 2-varaq.
7. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 1-ro'yxat, 54-ish, 3-varaq.
8. Народное хозяйство Узбекской ССР (yillik statistik to'plamlar, 1960–1970-yillar).